

«DKZ» AJ

BUYRUQ

№ 732-1/04

2022-yil 26 -dekabr

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli qarori bilan «Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomi tasdiqlangan.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida «O'zbekimiyosanoat» AJning 2022-yil 1-aprelda 46-sonli buyrug'i chiqarilgan.

Yuqorida qayd etilgan qaror va «O'zbekimiyosanoat» AJning buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom va «O'zbekimiyosanoat» AJning 2022-yil 1-aprelda 46-sonli buyrug'i ijro uchun qabul qilinsin.

2. «DKZ» AJda quyidagi aloqa kanallar orqali korrupsion qonunbuzarliklar to'g'risida ma'lumot berilishi ta'minlansin.

- 75 612-50-18 ishonch telefoni orqali;
- uz-potash.uz – rasmiy veb-sayt orqali;
- info@uz-potash.uz – elektron pochta orqali;
- <https://t.me/dehkanabadpotashplant> - telegram messenjeri orqali;
- <https://www.instagram.com/dehkanabadpotashplant/> - instagram messenjeri orqali;
- <https://www.facebook.com/dehkanabadpotashplant/> - feysbuk messenjeri orqali;
- Bevosita jamiyat raisiga;
- Bevosita jamiyatning «Komplayens» xizmatiga.

3. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun «DKZ» AJda quyidagi tarkibda ishchi guruh tuzilsin:

ishchi guruh rahbari

«DKZ» AJ Boshqaruv raisining Moliya va iqtisod bo'yicha o'rinbosari

R.To'raqulov

Ishchi guruh a'zolari:

1. Komplayens xizmati boshlig'i
2. Ichki audit xizmati boshlig'i
3. Yuridik bo'lim boshlig'i
4. Bosh hisobchi

O'.Meilyev
O'.Toshboyev
A.Umarov
S.Jumayev

(Ishchi guruh a'zolaridan birortasi boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning o'rniga shu lavozimga yangi tayinlangan xodim ishchi guruh a'zosi sifatida ishtirok etishi belgilansin).

Ishchi guruh zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

-jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

-korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, unga imkon berayotgan shart-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

-xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyatini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

4. Ishchi guruh tomonidan rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshirilsin.

5. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki estalik sovg'a shaklda rag'batlantiriladi:

- xodimlar tomonidan o'zlariga nisbatan pora berishni taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

-nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yohud fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining xizmatchisi o'ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar Ishchi guruh xulosasi asosida quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti yoki sovg'a bilan rag'batlantirilsin:

-korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun – **mehnat haq to'lashning eng kam miqdorining uch baravari miqdorigacha;**

-pora summasi yoki yetkazilgan zarar yohud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun – **mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining uch baravaridan yuz baravarigacha;**

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar esdalik sovg'a qiymati – **mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki baravarigacha.**

7. Jamiyatda qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, taqib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmasin va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmasligi ta'minlansin.

8. Jamiyatning AKT bo'limi (O.Hamrayev)ga: Mazkur buyruqni jamiyatning barcha aloqa kanallariga joylashtirilishi ta'minlansin.

9. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o'z zimmamda qolidarman.

Asos: "O'zkimyosanoat" AJning 2022-yil 1-aprelda 46-sonli buyrug'i.

Boshqaruv raisi v.b



R.Usarov

Loyihani kiritdi:


Komplayens xizmati boshlig'i:



O'.Meyliyev

Kelishildi:

Boshqaruv raisi o'rinbosari



R.To'raqulov

Yuridik bo'lim boshlig'i


A.Umarov

Ichki audit xizmati boshlig'i



U.Toshboyev

Bosh hisobchi



S.Jumayev